

**G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDA MAVJUD INSON
HUQUQLARIGA OID MUNOSABATLAR TAHLILI**

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi
farangizbaxtiyorov@gmail.com*

Annotatsiya: Inson huquqlari - har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat'i nazar, ajralmas huquqlaridir. Barcha odamlar har qanday turdag'i kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir xilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Ma'lumki, G‘afur G‘ulom “Shum bola” asarini inson huquqlari bilan bog'liq standartlar xalqaro miqyosda ko'rib chiqilmagan va davlatlar o'z qonunchiliklari orqali bu huquqlarni ta'minlashgan bir paytni aks ettirgan. Ammo xalqaro miqyosda mustahkamlanmasada, insonning tabiiy va asosiy huquqlaridan biri hisoblangan yashash huquqi, aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi bilan bog'liq holatlar axloqiy va huquqiy jihatdan yoqlab bo'lmaydi. Asardagi inson huquqlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlar, bugungi kun bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Aybsizlik prezumpsiyasi, Deklaratsiya, Samosud tushunchasi, yashash huquqi, Xalqaro Amnistiya tashkiloti, axloq normalari, o'zboshimchalik bilan jazolash.

Abstract: Human rights are the inalienable rights of every person, regardless of nationality, place of residence, gender, ethnic origin, body color, religion, language, and other characteristics. All people have the right to enjoy human rights equally, without discrimination of any kind. These rights are interrelated and inalienable. It is known that Gafur Ghulam's work "Shum bola" reflected a time when standards related to human rights were not considered at the international level and countries ensured these rights through their legislation. However, even if it is not strengthened at the international level, the cases related to the violation of the right to life and the presumption of innocence, which is considered one of the natural and basic rights of a person, cannot be supported morally and legally. Legal relations related to human rights in the work are analyzed in comparison with today.

Key words: Presumption of innocence, Declaration, concept of Samosud, right to life, Amnesty International, moral standards, arbitrary punishment.

Аннотация: Права человека являются неотъемлемыми правами каждого человека, независимо от национальности, места жительства, пола, этнического происхождения, цвета кожи, вероисповедания, языка и других признаков. Все люди имеют право пользоваться правами человека в равной степени, без какой бы то ни было дискриминации. Эти права взаимосвязаны и неотчуждаемы.

Известно, что произведение Гафура Гулама «Шум бола» отразило время, когда стандарты, касающиеся прав человека, не рассматривались на международном уровне, а страны обеспечивали эти права через свое законодательство. Однако, даже если она не будет закреплена на международном уровне, дела, связанные с нарушением права на жизнь и презумпции невиновности, считающейся одним из естественных и основных прав человека, не могут быть поддержаны морально и юридически. . Правоотношения, связанные с правами человека в работе, анализируются в сравнении с сегодняшним днем.

Ключевые слова: Презумпция невиновности, Декларация, концепция Самосуда, право на жизнь, Amnesty International, нормы морали, произвольное наказание.

KIRISH

O‘zbekistonning taniqli yozuvchisi G‘afur G‘ulom she’riyati va nasrida o‘zbek xalqi tarixi o‘zining badiiy timsolini topgan. Uning asarlarida dolzarb huquqiy muammolari yaqqol ko‘rsatib berilgan. Adibning “Shum bola” asari tom ma’noda bolalarning haq-huquqlari va ularni qay tarzda hayot kechirganligining timsoliga aylanib ulgurdi. Asarda Shum bola sarguzashlari orqali urush yillaridagi achinarli manzaralar ba’zan hajv, ba’zan esa jiddiy ruhda sayqal berilgan. O‘quvchiga ehtimol kulguli tuyulishi mumkin bo‘lgan holatlar, sal o‘tib kishi rahmini keltiradi, yuragiga chuqur qayg‘u olib keladi. Masalan, asarda quyidagicha keltiriladi: “Katta-katta tandirlarda alangalanib o‘t yonmoqda edi. Ko‘ksi ochiq bo‘z yaktak kiygan, chakkasini bog‘lagan kishilar, tez-tez laxcha cho‘g‘li tandirlarning ichiga kirib-chiqib, issiq non uzmoqda edilar. Go‘yo quyosh korxonasida to‘lin oy yasalmoqda edi. Qizil mag‘iz, lolarang bo‘lib pishgan nonlarning yuzi oftobdan ham issiq edi. Qani endi jildirab oqayotgan shu ariqning labiga o‘tirib olsangu, shu nondan bir savatini oldingga qo‘yib qo‘ysalar, hech qanday takalluf bo‘lmasa, suvga botirib yeyaversang, yeyaversang. *Ammo bunday paytlarda bizday kamsuqumlarni nonning saxovatli hidiga to‘ydira oladi. Isinish bahonasi bilan novvoxonaning eshigi oldida nonning hidini hidlab turar edim*”¹. Nonning faqatgina isinigini kifoya deb bilgan bolakay, isinib olish va hidni hidlashni bir vaqtda bajarayotganidan xursand. Shu darajada davlatni tutib ketgan ocharchilik va huquqiy jamiyat mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligining yolg‘iz qurbanlari bolalar ekanligini yuqoridagi jumlalarni o‘qib yana bir qonli o‘tmish xotiralaridan chizgilar tasavvurimizda paydo bo‘ladi. Bugun bo‘lsa yer depsinib, “maktabga bormayman, tansiq taomni ham yemayman deb bosh tortadigan, otionasidan mehr emas telefon yoki boshqa qimmatbaho sovg‘alar qilishini kutuvchi bolalar” ni ko‘rib Shum bola va uning tengqurlariga achinadi kishi…

¹ G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352-b.

ASOSIY QISM

Inson huquqlari - shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, komil topishi uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlari². G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida inson huquqlariga oid masalalarni va bugungi va o‘sha damdagi normalarni qiyosiy tahlil qilamiz. Shum bola asarida inson huquqlariga qarshi, ya’ni bevosita shaxsga qaratilgan harakatlar bir nechta topiladi. Dastavval, “Shum bola asarida ikki marotaba sodir etilgan samosud holatiga to‘xtalsak. Samosud – bu huquqbazarlik sodir etgan yoki huquqbazarlik sodir etishda gumon qilingan shaxs haqida tegishli davlat organiga xabar qilmasdan, uni o‘zboshimchalik bilan qonunga xilof ravishda jazolash”³. Biron-bir shaxsni samosud qilish, uning konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblangan “aybsizlik prezumpsiyasi”, ya’ni jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Ushbu norma Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida ham mustahkamlangan. Asarda ushbu insonning ajralmas huquqi hisoblangan qoida buzilishi holati mavjud. Asar qahramonlaridan biri Rahmat hoji Farg‘onaga sayohatga borganida, hammaga o‘zini boy kishi deb tanishtirgan. Shunda Marg‘ilonlik bir kosib Latifaxon ismli eri o‘lgan qiziga uni uylantirib qo‘yadi. Rahmat hojining esa o‘z xotini bo‘lib, uning ismi Oysha edi. Rahmat hoji xotinidan Latifaxonga o‘zini uning singlisi qilib tanishtirib turishini iltimos qilib, bir qancha vadalar beradi. Ammo oradan ancha muddat o‘tsa hamki, bu yolg‘on davom etib kelaverganidan Oysha barcha haqiqatlarni Latifaxonga aytib beradi. Latifaxon esa narsalarini yig‘ishtirib uyni tark etayotgandan Rahmat hoji orqasidan yetib olishga ulguradi. Shu vaziyatda Latifa va Rahmat hoji o‘rtasida janjal chiqib, bunga olomon aralashadi. Asarda uning olomon qilinishi quydagicha tasvirlanadi: “**Sudrab chiqqan yigitlardan to‘rttasi uni chalpak qilib ko‘tardilar. Keyin siltab-siltab tortib, nog‘ora bozorining oqovadan botqoqlangan ko‘chasiga bir qop dondek irg‘itib otdilar**”⁴. Shuningdek, poshnali etiklar zarbidan o‘yilgan ko‘zları, sog‘ joyi qolmagan, jonini allaqachon haqqa topshirib bir xalta go‘shtga aylangan edi. Keltirilgan vahshiyona sahma, insonni larzaga soladi. Chunki, bu yerda insondek buyuk qadryatning hech qanday asoslarsiz, olomon qilinishi hech qaysi inson huquqlari standartlariga to‘g‘ri kelmaydi. Qonunsiz ravishda ikkinchi shaxsni bir yoki

² Universal Declaration of Human Rights.

Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

³ Смирнов А.М. Самосуд как индикатор деструктивных процессов в современном российском обществе // Психология и право. 2020. Том 10. № 1. С. 84-91. DOI: https://doi.org/10.17759/psylaw.2020100107

⁴ G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352-b.

bir necha kishi tomonidan samosud qilinish holatlari Xalqaro Amnistiya tashkiloti va boshqa tashkilotlar tomonidan kesin qoralangan.

Shuningdek, asarda yuqoridagi holatga o‘xshash yana bir voqeа aytib o‘tiladi. “Hamma imomga iqtido qilib “ollohu akbar” deyilishi bilan namozdan kechikibroq qolgan bir banda oldingi safga o‘tib keta turib o‘rtaroq safdagi bir tanishining kissasidan yarmidan ko‘pi chiqib, tushib ketay deb turgan bo‘z hamyoniga ko‘zi tushib qoladi. Shu hamyonni mehribonchilik bilan kissasiga ichkariroq solib qo‘ymoq uchun qo‘l uradi. Buni qatorda turgan yana bir musulmon ko‘rib qolib namozini buzib: “Dod, musulmonlar, xonaqohga kisovur oraladi”, - deb baqiradi va haligi sho‘rlikni yoqasiga yopishib mushtblay boshlaydi. Machitdagи imom boshliq hamma musulmonlar ham namozlarini buzib, haligi parrixtani do‘pposlab ketadilar”⁵. “To‘xtang nima gap” degan gapga quloq soladigan odam yo‘q. Sal o‘tib o‘sha kimsani o‘laksa qilib, machit yoniga olib chiqishadi. Hamma voqeа yuz berib bo‘lgandan so‘nggina, o‘zi nima bo‘ldi deb so‘rashadi. Bu kabi holatlarda, tegishli organ xodimlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ammo, o‘z-o‘zicha samosud qilingan shaxsning aslida qanday nojo‘ya harakat sodir etganligini bilmasdan turib, va agarda sodir etgan bo‘lsa bu harakati uchun qanday javobgarlik belgilanishini haqida hech qanday ma’lumoti bo‘lмаган kimsalar samosud qilishga kirishib ketganlar. Bu esa o‘z navbatida o‘sha davr aholisining huquqiy ong va huquqiy madaniyati past bo‘lgan. Bir yoki bir nechta kishining **to‘satdan yuzaga kelgan qasdi** natijasida boshqa bir xoh aybdor bo‘lsin, xoh begunoh ularga qonuniy yo‘l bilangina ta’sir chorralari qo‘llanilishi mumkindir. Bu xatti-harakatni sodir etish insonning tug‘ilishi bilan unda ajralmas huquq sifatida paydo bo‘ladigan **“yashash huquqi” ga** daxl qilinishi sifatida ham baholanishi mumkin.

Bugungi kunda samosud qilishning har qanday turi javobgarlikka sabab bo‘ladi. O‘zicha sudlash (samosud), ya’ni qonun tili bilan aytganda “o‘zboshimchalik” **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 200-moddasiga** muvofiq, o‘zboshimchalik, ya’ni o‘zining haqiqiy yoki nazarda tutilgan huquqini fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlariga, davlat manfaatlari yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yoki ziyon keltirmagan holda o‘zboshimchalik bilan amalga oshirsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa-bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi, **Jinoyat kodeksining 229-moddasiga ko‘ra**, o‘zboshimchalik, ya’ni haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirish fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha

⁵ G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 260-b.

miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilab o‘tilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Ikkinci jahon urushi yillari voqealaridan xabar beruvchi “Shum bola” asarida inson huquqlari bilan bog‘liq ko‘plab nizoli holatlarning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri o‘sha davrda inson huquqlariga oid majburiy va xalqaro normalarning yaratilmaganligi. Aholi orasida boshqa shaxslarning hatto hali ta’milnagan huquqlarini buzishga intilishning kuchliligi, universal huquqiy normalar yaratilmagan bo‘lsada, axloq normalarining ham jamiyat hayotida ahamiyatsizligi sabab bo‘lgan. Bugungi kunda esa samosud holatlari aniqlanishi bilan javobgarlik masalasi ko‘riladi.

Foydalanilgan manbalar

1. G’afur G’ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352-b.
2. Universal Declaration of Human Rights.
3. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
4. Смирнов А.М. Самосуд как индикатор деструктивных процессов в современном российском обществе // Психология и право. 2020. Том 10. № 1. С. 84-91. DOI: <https://doi.org/10.17759/psylaw.2020100107>
5. G’afur G’ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352-b.